

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida**  
**UDK: 330.12-048.32(575.1)**

**TURDIYEV ZOXIDJON RUSTAMOVICH**

**AHOLI IQTISODIY FAROVONLIGINI OSHIRISHNING  
NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01-“Iqtisodiyot nazariyasi”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan  
DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: Nabiyeu E.G‘., i.f.d., professor**

## MUNDARIJA

|                 |                                                                                                                  |            |
|-----------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|                 | <b>KIRISH.....</b>                                                                                               | <b>3</b>   |
| <b>I-bob.</b>   | <b>AHOLI IQTISODIY FAROVONLIGI VA UNING DARAJASINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....</b>                | <b>13</b>  |
| 1.1.            | Aholi iqtisodiy farovonligi to‘g‘risidagi nazariyalarning mazmuni va asosiy g‘oyalari.....                       | 13         |
| 1.2.            | Aholi iqtisodiy farovonligini oshirishda nominal va real daromadlarning roli.....                                | 28         |
| 1.3.            | Aholi iqtisodiy farovonligi darajasini baholashning uslubiy masalalari.....                                      | 39         |
|                 | <b>I-bob bo‘yicha xulosalar.....</b>                                                                             | <b>45</b>  |
| <b>II-bob.</b>  | <b>AHOLI IQTISODIY FAROVONLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR.....</b>                                                    | <b>47</b>  |
| 2.1.            | Daromadlar taqsimotining aholi iqtisodiy farovonligiga ta’siri.....                                              | 47         |
| 2.2.            | Aholi iqtisodiy farovonligini oshirishda davlatning roli.....                                                    | 55         |
| 2.3.            | Aholi daromadlariga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....                                          | 68         |
|                 | <b>II-bob bo‘yicha xulosalar.....</b>                                                                            | <b>87</b>  |
| <b>III-bob.</b> | <b>O‘ZBEKISTONDA AHOLI IQTISODIY FAROVONLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI.....</b>                                   | <b>90</b>  |
| 3.1.            | Mahalliy shart-sharoit va imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali aholi farovonligini oshirish yo‘llari..... | 90         |
| 3.2.            | Aholi farovonlik darajasidagi tengsizlik va kambag‘allikni tartiblash yo‘nalishlari.....                         | 101        |
| 3.3.            | O‘zbekistonda aholi iqtisodiy farovonligini ta’minlashga oid milliy dasturlar samaradorligini oshirish.....      | 112        |
|                 | <b>III-bob bo‘yicha xulosalar.....</b>                                                                           | <b>120</b> |
|                 | <b>XULOSA.....</b>                                                                                               | <b>122</b> |
|                 | <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>                                                                   | <b>124</b> |
|                 | <b>ILOVALAR.....</b>                                                                                             | <b>132</b> |

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari aholisining iqtisodiy farovonligiga oid tegishli ma'lumotlar turli manbalarda taqdim etib kelinmoqda. Jahon Banki guruhining 2024-yil yakunlari yuzasidan taqdim etgan hisobotida, xususan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik bo'limi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisi 8,14 milliard kishidan oshgan<sup>1</sup>. Yer yuzi aholisining bunday sezilarli darajada jadal ortib borishi, jahon iqtisodiyotini rivojlanishiga hamda mamlakatlar aholisining iqtisodiy farovonligiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda aholining iqtisodiy farovonligiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini tahlil qilish, aholi iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan takliflarni ilmiy jihatdan asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, aholi iqtisodiy farovonligini oshirish mamlakatlar rivojlanishining asosiy strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dunyoda aholining turli ijtimoiy guruhlarini, xususan, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga, ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ta'minotining mexanizmlarini yanada takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan jahonda iqtisodiy farovonlik bo'yicha so'nggi global tadqiqotlar, jumladan, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiyotni yuksaltirish va aholi turmush darajasini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni saqlab turish kabi bir qator yo'nalishlarda doimiy ravishda ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda<sup>2</sup>. Jahon bozori mamlakatlardan erkin raqobatga kirishishni talab etayotgan bir vaqtda dunyoning ko'pchilik mamlakatlari iqtisodiy inqirozga duch kelmoqda. Bunday global raqobat sharoiti har bir mamlakatdan o'zining kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida

<sup>1</sup> <https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.TOTL>.

<sup>2</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy\\_hamkorlik\\_va\\_taraqqiyot\\_tashkiloti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_hamkorlik_va_taraqqiyot_tashkiloti).

dunyo hamjamiyatining e'tiboriga loyiq katta natijalarga erishildi. Xususan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga tayanilgan holda "inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish<sup>3</sup> yuzasidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning pirovard maqsadi vatanimiz iqtisodiyotini rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti qatoridan o'rin olishi va ular darajasidagi aholining iqtisodiy farovonligiga erishishidir. Ammo, aholining iqtisodiy farovonligini oshirishda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Ushbu yechimini kutayotgan muammolar qatoriga mamlakat aholisining kambag'allik darajasini past emasligi, mehnatga layoqatli aholi o'rtasida ishsizlikning mavjudligi, inflyatsiya darajasini saqlanib qolayotganligini kabi bir qator omillarni qo'shish mumkin. Jahon iqtisodiyotiga globallashuv sharoitida O'zbekistonda aholining iqtisodiy farovonligini oshirish jarayonini iqtisodiy-statistik tadqiq etish, unga ta'sir etuvchi omillarni baholash dolzarb masala hisoblanadi.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-son farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni, 2020-yil 11-avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4804-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi "Mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta'minlash

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.

hamda “Mahalla yettiligi” faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Turmush farovonligi masalasining dolzarbligi uni tahlil etishga ko‘pgina olimlar, mutaxassislar va xalqaro tashkilotlar diqqatini o‘ziga qaratdi.

Bozor iqtisodiyotidagi farovonlikni u yoki bu darajada ko‘pgina xorij olimlari tahlil etib kelishgan. Bu muammoni daromadlar va iste‘mol nuqtai nazaridan A.Smit, D.Rikardo, A.Marshal, M.Keyns, F.Xayek, G.Sidjvik, K.Viksell, L.Valras kabi olimlar tadqiq etishdi<sup>4</sup>. Uni maxsus o‘rgangan G‘arb olimlari sirasiga Dj.B.Klark, A.Pigu, V.Paretolarni kiritish mumkin<sup>5</sup>. Ularning asarlarida real daromadlar mohiyati, ularning o‘sish omillari, daromadlardagi tengsizlik, aholi iste‘moli, uning tarkibi kabi masalalar ko‘rib chiqilgan. Mazkur olimlar turmush darajasini tahlil etishning metodologik tamoyillarini ishlab chiqishdi. Hozirgi zamon “Ekonomiks”lari mualliflari P.Samuelson, K.Makkonnell, S.Bryu kabi olimlar asarlarida esa, aholi daromadlarining shakllari, ularning nisbati, daromadlar tabaqalanishi va aholi farovonligi masalalari yoritiladi<sup>6</sup>.

---

<sup>4</sup> Смит А. “Исследование о природе и причинах богатства народов”. – М.: Эксмо, 2009; Риккардо Д. “Начала политической экономии и налогового обложения: избранное.” – М.: Эксмо, 2009; Маршалл А. “Основы экономической науки” – М.: Эксмо. 2008; Кейнс Дж.М. “Общая теория занятости, процента и денег. Избранное” – М.: Эксмо. 2009; Майнбурд Е.М. Введение в историю экономической мысли, от пророков до профессоров. – М.: 1996; Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе. – М.: 1994.

<sup>5</sup> Кларк Д.Б. Распределение богатства. – М.: 1992; Майнбурд Е.М. Введение в историю экономической мысли, от пророков до профессоров. – М.: 1996.

<sup>6</sup> Самуэльсон П. Экономика. Т.2. – М.: “АЛГОН” ВНИИСИ, 1992; Макконнелл К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. Т 2. – М.: 1992.

MDH olimlaridan aholi farovonligiga doir masalalarni V.Mayer, N.Volgin, R.Odegov, V.Jerebin, A.Romanov va boshqa olimlar o'rganishgan<sup>7</sup>.

O'zbekiston olimlari qalamiga mansub ishlarda, aholi daromadlari, uning turlari asosan umumiy tarzda ko'rib chiqilgan. Bu boradagi tadqiqot ishlari A.V.Vahobov, R.R.Hasanov, U.S.Yuldasheva, S.L.Alibekova, B.B.Ahmedov, R.F.Jumanova, M.K.Abdullayev, O.X.Mahmudovlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib<sup>8</sup>, ularda aholi farovonligi masalasi chuqur tahlil etilgan, aholi daromadlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, shakllanish mexanizmlari, bozor va nobozor daromadlarning farqlanishi, ular nisbatining o'zgarishi, aholi farovonligiga ta'siri hamda kambag'allik muammolari, O'zbekiston aholisi pul daromadlarining turlari, aholi iste'mol xarajatlarining tarkibi, aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari, oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va farovonligini oshirishning metodologik masalalari tadqiq etilgan. Jumladan:

A.V.Vahobovning monografiyasida<sup>9</sup> ijtimoiy fondlarning mohiyati, tarkibiy tuzilishi, shakllanishi va aholi farovonligini oshirishdagi roli chuqur tahlil etilgan. R.R.Hasanovning monografiyasida<sup>10</sup> aholi daromadlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, shakllanish mexanizmlari, bozor va nobozor daromadlarining farqlanishi, ular nisbatining o'zgarishi, aholi farovonligiga ta'siri hamda kambag'allik muammolari tahlil etilgan. U.S.Yuldashevaning nomzodlik dissertatsiyasida<sup>11</sup> daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlari tahlil etilgan. S.L.Alibekovaning nomzodlik dissertatsiyasida<sup>12</sup> O'zbekiston aholisi pul daromadlarining turlari, aholi iste'mol xarajatlarining tarkibi o'rganilgan.

<sup>7</sup> Майер Ф.В. Уровень жизни населения СССР. – М.: Экономика, 1987; Волгин Н.А., Одегов Ю.Г. Экономика труда (социально-трудовые отношения). – М.: Экзамен, 2003; Жеребин В.М., Романов А.Н. Уровень жизни населения. – М.: ЮНИТИ. 2002.

<sup>8</sup> Vahobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. – T.: Sharq, 2003; Xasanov R.R. Bozor munosabatlari: mohiyati, tarkibiy tuzilishi va tabaqalanishi. – T.: 2004; Yuldasheva U.S. Iqtisodiyotning transformatsiyalanishi jarayonida aholi daromadlarining shakllanishi va taqsimlanishi: i.f.n. dis. avtoref. – T.: 2001; Алибекова С.Л. Формирование и факторы роста уровня жизни населения Узбекистана: автореф. дис., к.э.н. – T.: 2003; Ахмедов Б.Б. Денежные доходы и расходы населения Республики Узбекистан в условиях переходной экономики: автореф. дис., к.э.н. – T.: 2002; Djumanova R.F. Aholi turmush darajasi: ko'rsatkichlari va uni oshirish yo'llari: i.f.n. dis. avtoref. – T.: 2008; Abdullayeva M.K. Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo'nalishlari. i.f.n. dis. avtoref. – T.: 2008; Mahmudov O.X. Oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning metodologik asoslari. DSc dis. avtoref. – T.: 2022.

<sup>9</sup> Vahobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. – T.: Sharq, 2003: 320-B.

<sup>10</sup> Xasanov R.R. Bozor munosabatlari: mohiyati, tarkibiy tuzilishi va tabaqalanishi. – T.: 2004: 192-B.

<sup>11</sup> Yuldasheva U.S. Iqtisodiyotning transformatsiyalanishi jarayonida aholi daromadlarining shakllanishi va taqsimlanishi: i.f.n. dis. avtoref. – T.: 2001: 21-B.

<sup>12</sup> Алибекова С.Л. Формирование и факторы роста уровня жизни населения Узбекистана: автореф. дис., к.э.н. – T.: 2003: С. 24.

B.B.Ahmedovning nomzodlik dissertatsiyasida<sup>13</sup> ham O‘zbekiston aholisi pul daromadlarining turlari, mulkiy farqlari, tarkibiy tuzilishi va uni oshirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. R.F.Jumanova dissertatsiyasida<sup>14</sup> aholi turmush darajasi kategoriya sifatida, uning modellari va ko‘rsatkichlari, daromadlardagi tengsizlik masalalari nazariy jihatdan baholangan. M.K.Abdullayevaning nomzodlik ishida<sup>15</sup> ijtimoiy himoyaning mohiyati, modellari tahlil etilgan, uni ta‘minlashda mikrokreditning roli ochib berilgan. O.X.Mahmudovning doktorlik ishida<sup>16</sup> oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash va farovonligini oshirishning metodologik masalalari tadqiq etilgan.

Yuqorida qayd etilgan dissertatsiyalarda aholi farovonligi masalasi nominal daromadlar tahlili asosida yoritilgan bo‘lib, ularda real daromadlarni tahlil etishga jiddiy e‘tibor berilmagan, farovonlikning aniq omillari va kelajakdagi o‘shish imkoniyatlari chuqur ko‘rib chiqilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Yangi O‘zbekiston sharoitida aholi iqtisodiy farovonligini izchil oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:** Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

aholi iqtisodiy farovonligi tushunchasining nazariy asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish;

aholining umumiy daromadlariga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarning aholi iqtisodiy farovonligini oshirishdagi tajribasini o‘rganish;

---

<sup>13</sup> Ахмедов Б.Б. Денежные доходы и расходы населения Республики Узбекистан в условиях переходной экономики: автореф. дис., к.э.н. – Т.: 2002: С. 21.

<sup>14</sup> Djumanova R.F. Aholi turmush darajasi: ko‘rsatkichlari va uni oshirish yo‘llari: i.f.n. dis. avtoref. – T.: 2008: 26-B.

<sup>15</sup> Abdullayeva M.K. Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlari. i.f.n. dis. avtoref. – T.: 2008: 23-B.

<sup>16</sup> Maxmudov O.X. Oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashning metodologik asoslari. DSc dis. avtoref. – T.: 2022: 32-B.

aholi iqtisodiy farovonligini oshirishda ijtimoiy sohalarining ta'sirini ko'rib chiqish;

o'rta istiqbolida O'zbekistonda aholi iqtisodiy farovonligini qay darajada o'zgarishi yuzasidan prognoz ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti sifatida** O'zbekiston aholisining iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi sohalar olingan.

**Tadqiqot predmeti** bo'lib aholi iqtisodiy farovonligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ishini bajarishda ilmiy mushohada, statistik guruhlash, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy mantiqiy umumlashtirish, ekonometrik tahlil hamda prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, "aholi iqtisodiy farovonligi" tushunchasi klassik iqtisodiy maktabning farovonlik darajasini bozor mexanizmi va erkin raqobat ta'minlashi, marjinalistik maktabning farovonlikni asosiy o'lchovi sifatida resurslarni samarali taqsimlanishi, keynscha maktabning ish bilan ta'minlanganlik va davlatning iqtisodiyotdagi roli kabi qarashlarini uyg'unlashtirgan holda ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, aholi farovonligini oshirishga bandlik darajasining ta'sir jihatlarini hisobga olgan holda mahallalarda oilaviy tadbirkorlik va aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek yoshlar va xotin-qizlarning daromad keltiruvchi ishlarda bandligini ta'minlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish taklifi asoslangan;

tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqarolarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng dastlabki uch oy mobaynida olingan bino va inshootning ijara to'lovini to'lash uchun aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda aholi iqtisodiy farovonligi darajasiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida farovonlik darajasining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nazariy tadqiqotlar asosida uslubiy yondashuvga ko'ra, "aholi iqtisodiy farovonligi" tushunchasi ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

aholi iqtisodiy farovonligini oshirish maqsadida davlatning yangi ish o'rinlarini yaratgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilishi yuzasidan keng ko'lamli moliyaviy dasturlarini yanada jadallashtirish borasida imtiyozli kreditlar ajratish talablarini yengillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

aholining jon boshiga umumiy daromadlariga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik model asosida baholash bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan;

ishsiz aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan davlatning bandlik siyosatini yanada jadallashtirish yuzasidan tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqarolarga subsidiyalar ajratish taklifi asoslangan;

iqtisodiy farovonlikni oshirishga qaratilgan makroiqtisodiy darajadagi takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Jahon Banki, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aholi farovonligini yuksaltirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida “Iqtisodiy nazariya”, “Yashil iqtisodiyot” fanlarini takomillashtirish bo‘yicha darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Aholi iqtisodiy farovonligini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra, “aholi iqtisodiy farovonligi” tushunchasi klassik iqtisodiy maktabning farovonlik darajasini bozor mexanizmi va erkin raqobat ta’minlashi, marjinalistik maktabning farovonlikni asosiy o‘lchovi sifatida resurslarni samarali taqsimlanishi, keynscha maktabning ish bilan ta’minlanganlik va davlatning iqtisodiyotdagi roli kabi qarashlarini uyg‘unlashtirgan holda ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan berilgan taklifidan 7230103-Makroiqtisodiyot hamda 70310301-Mintaqaviy iqtisodiyot magistratura mutaxassisliklarida o‘qitiladigan “Yashil iqtisodiyot” fanidan darslik hamda o‘quv dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 25-iyuldagi 02/01-01-298-son ma’lumotnomasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 27-dekabrdagi 448-sonli buyrug‘i). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiyot nazariyasini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga hamda 7230103-Makroiqtisodiyot, 70310301-Mintaqaviy iqtisodiyot magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olayotgan magistrlar va shuningdek, ilmiy tadqiqotchilarda “aholi iqtisodiy farovonligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuniga oid bilim va ko‘nikmalarining rivojlanishiga hissa qo‘shgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, aholi farovonligini oshirishga bandlik darajasining ta'sir jihatlarini hisobga olgan holda mahallalarda oilaviy tadbirkorlik va aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek yoshlar va xotin-qizlarning daromad keltiruvchi ishlarda bandligini ta'minlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish taklifi 7230103-Makroiqtisodiyot hamda 70310301-Mintaqaviy iqtisodiyot magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan "Yashil iqtisodiyot" fanidan darslik va o'quv dasturini tayyorlashda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida o'z aksini topgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 27-dekabrdagi 448-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 10-yanvardagi 14-son ma'lumotnomasi asosida amaliyotga joriy etilgan). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida mahallalarda oilaviy tadbirkorlik va aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mazmuniga oid bilim va ko'nikmalarining rivojlanishiga hissa qo'shgan hamda mamlakatimizda davlat tomonidan tegishli tartibda garovsiz kreditlar ajratish amaliyoti yo'lga qo'yilgan;

tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqarolarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng dastlabki uch oy mobaynida olingan bino va inshootning ijara to'lovini to'lash uchun aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qabul qilinib amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 10-yanvardagi 14-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida shaxslarning resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Subsidiyalar portali ([www.subsidiya.mf.uz](http://www.subsidiya.mf.uz))da

ishsiz, kam ta'minlangan oilalar a'zolari, tashqi mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarga qishloq xo'jaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida kiritish rukni qo'shilib, aholini tadbirkorlikka jalb qilish imkoniyatlari oshgan;

O'zbekistonda aholi iqtisodiy farovonligi darajasiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida farovonlik darajasining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2025-yil 10-yanvardagi 14-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli farmonining barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash bo'limida "2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish" vazifasi sifatida o'z aksini topgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy g'oyalari va xulosalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari dissertant e'lon qilgan 15 ta ilmiy ishda, jumladan, 7 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarda o'z ifodasini topgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 123 betni tashkil etadi.